

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI MEDIA  
SAVODXONLIGINI OSHIRISH

*Erkinova Odinaxon Kozimjon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Matematika va informatika yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqlada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlash, hamda ularning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida mediakompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos kasbiy xususiyatlari va ularga qo'yilgan talablarni aniqlash haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Malaka oshirish jarayoni, tinglovchi, o'qituvchi, uzlucksiz ta'lif, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetentlik, mediakompetentlik.

**Abstract:** In the article, there is a question about determining the pedagogical and psychological capabilities of students in the process of training, as well as the specific professional characteristics and requirements for the development of media competence of teachers of general education schools in the process of training by developing mechanisms for controlling and evaluating their quality. Z is maintained.

**Key words:** Training process, listener, teacher, continuous education, pedagogical activity, professional competence, media competence.

## KIRISH

Bugun media savodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Bugungi axboriy muhitni tushunishda media savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilayapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Media savodxonlik tushunchasi borasida turli fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, "Media savodxonlik — inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir". Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir. Ayni paytda

media ta'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, o'quvchilar yoshlarga mакtablarda ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda bahola y o lish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqeа-hodisalarни xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Multimedia vositalari pedagogik nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu orqali, o'quvchilarda talim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababdan boshlang'ich sinf darslarini o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli va pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi "Multimedia-dars", "Slaydli dars", "Seminar dars" kabilarni qo'llash tavsiya etiladi. Seminar dars o'quvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o'qituvchi boshqarib, yo'naltirib turish vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi o'z fikriga ega shaxs sifatida o'quv faoliyatiga kirishadilar. "Multimediali darslar" dan foydalanish ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi: – O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etadi; – Yangi materialni jadallik bilan yetkaza oladi; – Axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'magida boshqara oladi.

Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariغا quyи-dagilar kiradi: -axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bun-day integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi; – muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lган matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishslash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi; – «inson-kompyuter» interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ish-lash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. Media savodxonlik iste'molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron

vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Media savodxonlik — insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Media va axborot savodxonligi — bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir. Bugungi kunda dunyo ommaviq axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash qobiliyati dolzarb bo'lib qolmoqda. Media savodxonligi, media ta'limi, media madaniyat, soxta va tashviqot axborotlariga qarshilik ko'rsatish — bu kalit so'zlarning barchasi ikki kunlik seminar trening mohiyatini aks ettirdi. Xo'sh, media savodxonlik nima? Nega bugun uning ahamiyati tobora ortib bormoqda? Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiya sarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan.

Respublikamizda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash — uzlusiz ta'lim tizimi turlaridan biri, xalq xo'jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatlari hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi "da belgilangan1 uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish kabi muhim vazifalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini

Joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi 4963-sonli qarorida :

Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlari o'rganiladi hamda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuziladi;

Har bir xalq ta'limi xodimining elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

Xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

An'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birligida olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi;

Kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlanirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash;

Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun namunaviy o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, kurslarning o'quv-uslubiy ta'minotini doimiy yangilab borishga ko'maklashish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmunini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali pedagog mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» PF-4947-son farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4963-sonli qarori

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, malaka oshirish ta'limi jarayonida o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishda bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatdi, xususan:

- Pedagog mutaxassisning ma'lumoti darajasi bilan Davlat ta'lim standartining modernizatsiyalashgan mazmuni va hajmiga qo'yilayotgan me'yoriy talablar hamda uning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasi o'rtasida;
- Pedagog mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida;
- O'qituvchi shaxsi va uning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyati bilan pedagog mutaxassisning malakasini oshirish jarayonini rivojlantirish mexanizmi hamda qonuniyatlari o'rtasida;
- Pedagogik turkum fanlarning o'qituvchisi shaxsiy hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasida;
- Ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanib borayotgan jamiyatning mahoratlari pedagog shaxsiga nisbatan ortib boruvchi talablari bilan o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosiy qismining o'z-o'zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritishga tayyor emasliklari o'rtasidagi ziddiyatlar kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mediakompetentlik pedagogikada umumiylar tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun malaka oshirish ta'limi jarayonida o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzlusiz ta'lim, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi yanada takomillashtirildi, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab va kollejlar o'rtasidagi bog'liqliklarni mustahkamlash yo'lida o'n bir yillik ta'lim tizimiga o'tildi, ta'lim mazmunini yangilash hamda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni

Barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Mutaxassislar mediakompetentligini rivojlantirish, malaka oshirish jarayonida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni malakasini oshirish mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

### 1-jadval

O'qituvchining kompetentlik turlari

Kasbiy kompetentlik Mafkuraviy kompetentlik Boshqaruv kompetentlik  
Mediakompetentlik

Kasbiy kompetentlik muayyan fan bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga egalligi (masalan, fizika, kimyo, tarix, matematika va boshqa fanlar) Mafkuraviy kompetentlik – g'oyaviy jihatdan aniq maqsadi bor, o'z irodasi, iymon-e'tiqodi, vijdoni, qarashlariga egaligi, yot mafkuralarga qarshi kurasha olishi Boshqaruv kompetentligi -o'qituvchining darsni boshqarishi, sinf jamoasini boshqarish uchun didaktik, psixologik, metodik, texnologik tayyoragarlikka ega bo'lish O'qituvchi (pedagog) mediakompetentligi -matbuot vakolatlari, uning sabablari, bilim, ko'nikma va malakalariga (ko'rsatkichlari: motivatsion, axborot, amaliy-tezkor, uslubiy faoliyati, ijodiy) ega bo'lib, barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga mediata'lism bilimlarini targ'ib qilish

### Ta'lim-tarbiya beruvchi pedagog

Mutaxassislar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, malaka oshirish ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, pedagogik-psixologik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Agarda «medikompetentlik» tushunchasining kelib chiqishga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

“Mediakompetentlik” umumiyo ko'rinishda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish

Va uzatish, sotsiumda medianing faoliyati murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida tushuniladi.

Mediakompetentlik-mediasavodxonlik (media competence/media literacy – turli

Shakllardagi xabarlarni (messages) qo'llash, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati .

Ma'lum bir mediakompetentlikni o'zlashtirgan shaxs deganda o'z sohasiga loyiq bilim va malakasi shakllangan, ijobjiy fikr va samarali harakat qila oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak,

«mediakompetenlik» - shaxsning ma'lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan harakatlarning o'zaro bog'liq sifatlari yig'indisi, «mediakomponentetlilik» insoning harakatiga mos kompetenlikni o'zlashtirish.

Mediakompetentlik yuqori darajasiga ega bo'lgan shaxs uchun quyidagi xususiyatlar harakterlidir:

Yangi ma'lumotlarni olish uchun harakat qilish (intilish);

Hayotining turli sohalarida o'z shaxsiy kompetentligini va har turdag'i mediamadaniyat dunyosiga intilish;

O'qish uchun zaruriy ilmiy materiallar izlap topish; media mahsulotlar bilan "doimiy" muloqotda bo'lish;

Media olamida mustaqil ravishda mediamatnlarni shakllantirish va tarqatish (mustaqil yoki guruh bilan birlashtirish) malakasiga ega bo'lish;

Mediaga bog'liq bo'lgan (o'yinbop, badiiy, tadqiqot va. H.k) yorqin faoliyat yurita olishi4.

Shunday qilib, pedagog shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish mediakompetentligi ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlanitirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan. Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malakasini oshirish mediakompetentligini rivojlantirish jarayonida ishtiroy etuvchi sub'ektlarning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy faolligi, shaxslararo munosabati va axborot vositalarining kasbiy rivojlantirishga ko'rsatayotgan ta'siri va ishtiroyini inobatga olish.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarida inovatsion ta'lim muhit talablarini asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish asosida quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

O'qituvchilarning barcha toifalari kesimida mutaxassislik fanlari bo'yicha malaka talablarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish;

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.

Никитина Е.Ю., Милютина А. А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. Монография. – М., 2015.